

KIMLARGA ISHGA QABUL QILINGANDA DASTLABKI SINOV BELGILANMAYDI

Bo'ka tuman adliya bo'limi boshlig'i

Sh.Malikov

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 129-moddasiga ko'ra homilador ayol, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayol yoki uch yoshga to'lmagan bolani yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan ota (vasiy);

zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish uchun yuborilgan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslar;

davlat grantlari asosida o'qigan va oliy ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran uch oy ichida yo'llanma bo'yicha olingan mutaxassisligiga doir ishga kirayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;

tegishli ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;

o'zi bilan olti oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar;

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar;

ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda ish beruvchi ilgari qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo'yicha bekor qilgan bo'lsa, o'sha shaxslar;

ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bo'yicha ushbu ish beruvchida o'qishni o'tagan o'quvchilar;

jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida va ish beruvchining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xodimlar.

Dastlabki sinov faqat xodimni ishga qabul qilish chog'ida belgilanishi mumkin. Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganda va boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborilganda dastlabki sinov belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Dastlabki sinov belgilanmasligi mehnat huquqlarini himoya qilish, ayrim toifadagi xodimlarga ishga joylashish jarayonini yengillashtirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Ish beruvchi bu qoidalarga rioya qilishi shart, aks holda xodimlar o'z huquqlarini sud yoki mehnat inspeksiyasi orqali himoya qilishlari mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi ayrim toifadagi xodimlarga ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmasligini kafolatlaydi. Bu mehnatga layoqatni ta'minlash, yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini

himoya qilish hamda mehnat bozorida ijtimoiy himoyani kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mehnat qonunchiligi bo'yicha qarorlari
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy hujjatlari
4. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi